

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH YUQUMLI KASALLIKLARDA HAMSHIRALIK ISHI FANIDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalar

1. Yuqumli kasalliklar haqida tushuncha va ularning kelib chiqish tarixi. Yuqumli kasalliklar shifoxonasining tuzilishi va uning ish tartibi. Yuqumli kasalliklarning profilaktikasi.

2. Ichak infeksiyalari: Ich terlama, Paratif A va B kasalliklari, Salmonellyoz, Botulizm, ovqat toksikoinfeksiyasi, Dizenteriya, Vabo kasalligi

3. Virusli gepatitlar. Nafas yo'llari infeksiyalari. Koronavirus. Gripp. O'RVI. Qizamiq. Suvchechak. Skarlatina. Difteriya (bo'g'ma). Ko'kyo'tal. Parako'kyo'tal. Tepki (epid paratit). Meningokokk infeksiyasi.

4. Tashqi qoplamalar infeksiyalari. Kuydirgi. Quturish. Oqsim. Qoqshol. Turli yo'llar bilan yuqadigan infeksiyalar. Toun (o'lat). Brutsellyoz. Parazitar kasalliklar. Protozoy kasalligi, amyobiaz, lyamliaz, toksoplazmoz. Gelmintozlar: askaridoz, enterobioz, exinokokkoz.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
------------	-----------------------	---------------------	-------------------	---------------------

1	Yuqumli kasalliklar haqida tushuncha va ularning kelib chiqish tarixi. Yuqumli kasalliklar shifoxonasining tuzilishi va uning ish tartibi. Yuqumli kasalliklarning profilaktikasi.	Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi fanining hozirgi davridagi tutgan o'rnini, yuqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablarini, yuqumli kasalliklar fanining maqsad va vazifalarini, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlarini, infeksiyon jarayonning rivojlanishini, yuqumli kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari bilish va farqlay olishi kerak.	30 %	12 ta
2	Ichak infeksiyalari: Ich terlama, Paratif A va B kasalliklari, Salmonellyoz, Botulizm, ovqat toksikoinfeksiyasi, Dizenteriya, Vabo kasalligi	Ichak infeksiyalari haqida tushunchani bilish, ich terlama, paratif A va B kasalliklarini etiologiyasi va epidemiologiyasini bilish, kasalliklarining qo'zg'atuvchilari, rivojlanish mexanizmi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "O'zbekiston Respublikasi hududida ich terlama va paratif kasalliklarni oldini olish va kamaytirish to'g'risi"dagi buyruqni bilish, dizenteriya, salmonellyoz etiologiyasi va epidemiologiyasi, kasalliklarining qo'zg'atuvchilari, rivojlanish mexanizmi bilish, toksikoz va eksikoz haqida tushunchani, bemorlarni ko'zdan kechirish ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	42.5 %	17 ta
3	Virusli hepatitlar. Nafas yo'llari infeksiyalari. Koronavirus. Gripp. O'RVI. Qizamiq. Suvchechak. Skarlatina. Difteriya (bo'g'ma). Ko'kyo'tal. Parako'kyo'tal. Tepki (epid paratit). Meningokokk infeksiyasi.	Bemorlarni ko'zdan kechirishni, bemorlarni parvarishlash, davolashni, infeksiya o'chog'ida joriy va yakuniy zararsizlantirish o'tkazishni bilish, aholi o'rtasida sanitariya-maorif ishlarini o'tkazishni jigar va taloqni chegaralarini aniqlashni, bemorlarni parvarishlash, davolash va parhyez stollarini, tibbiy asboblarni sterilizasiyaga tayyorlashni xabarnoma to'ldirish qoidalarini bilish, observasiya varag'ini to'ldirishni, kasallikka qarshi maxsus profilaktika, emlash sxemasi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
4	Tashqi qoplamalar infeksiyalari. Kuydirgi. Quturish. Oqsim. Qoqshol. Turli yo'llar bilan yuqadigan infeksiyalar. Toun	Kuydirgi kasalligi haqida tushunchalarni bilish, etiologiyasi, epidemiologiyasi, klinik belgilarini bilish, quturish kasallikning sabablari, yuqish yo'llari, asosiy klinik belgilari va davolashni bilish, maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini, AKDS vaksinaning yuborish sxemasini, oqsim,	17.5%	7 ta

	(o'lat). Brutsellyoz. Parazitar kasalliklar. Protozoy kasalligi, amyobiaz, lyamliaz, toksoplazmoz. Gelmintozlar: askaridoz, enterobioz, exinokokkoz.	qoqshol kasalliklar sabablari, belgilari, davolash va parvarishlashni bilish, o'lat kasalligining qo'zg'atuvchisi haqida ma'lumotlarni, o'latning tarqalishi sabablari va mexanizmini, o'lat epidemiyalarining aholi o'rtasida va hayvonlar o'rtasida tarqalishining o'zaro bog'liqligini, brutsellyoz kasalligining tarqalish sabablari va epidemik jarayoni, Kasalliklarni klinik belgilari va tashhis usullarini, davolash usullari va o'choqdagi profilaktika chora-tadbirlari, dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya o'tkazishni, O'zbekiston Respublikasi hududida o'lat va brutsellyoz kasalligini oldini olish to'g'risida amaldagi buyruqlarni bilishi.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.E.I.Musaboyev,A.Q.Bayjanov “Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va parazitologiya”. Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 yil

2. L.S.Zalikina “Bemorlarning umumiy parvarishi”. Toshkent, Abu Ali ibn Sino nashriyoti, 1995 yil

3. V.M.Majidov “Yuqumli kasalliklar” Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1993yil

4. V.I.Pokrovskiy, I.G.Bulkina. “Infeksion kasalliklar bilan bemorlar parvarishi va epidemiologiya asoslari” Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyoti, 1990 yil

5.E.S.Lapteva.M.R T.Sutsunova. N.V.Alyosheva «Davolash profilaktika muassasalarida infeksiyalar nazorati» I.I.Mechnikov nashriyoti 2013 yil.